

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

PALUANIYAZOVA DILBAR ALLANIYAZOVNA

**QORAQALPOG‘ISTON MAYDA SHOXLI MOLLARI GELMINTLARI
(FAUNASI, TARQALISHI, EKOLOGIYASI)**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Paluaniyazova Dilbar Allaniyazovna

Qoraqalpog‘iston mayda shoxli mollari gelmintlari (faunasi, tarqalishi, ekologiyasi) 3

Палуаниязова Дилбар Алланиязовна

Гельминты мелкого рогатого скота Каракалпакстана (фауна, распространение, экология) 23

Paluaniyazova Dilbar Allaniyazovna

Helminths of small horned cattle of Karakalpakstan (fauna, distribution, ecology)..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работа

List of published works..... 47

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

PALUANIYAZOVA DILBAR ALLANIYAZOVNA

**QORAQALPOG‘ISTON MAYDA SHOXTI MOLLARI GELMINTLARI
(FAUNASI, TARQALISHI, EKOLOGIYASI)**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/B843 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-talim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dadayev Saydulla

biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Eshova Xolisa Saidovna

biologiya fanlari doktori, professor

Saparbaev Jumabay

biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «18» sentyabr kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1 uy. Universitet majlislar zali. Tel: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№202-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko‘chasi, 1 uy, Tel: (+99861) 223-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «30» avgust kuni tarqatildi.
(2024 yil «30» avgustdagi № 2-raqamli reystr bayonnomasi)

M.A.Jumanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

M.K.Begjanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d., dotsent

Ya.I.Ametov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda global iqlim iqlim o'zgarishi, tabiiy ekotizimlarning kuchli o'zlashtirilishi nafaqat yovvoyi hayvonlar, balik, qishloq xo'jaligi hayvonlari holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa, dunyo miqyosida aholini ekologik toza go'sht, sut va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlashda yetakchilik qilayotgan chorvachilik sohalaridagi mayda shoxli mollar mahsuldorligini pasaytiradigan komponentlardan biri gelmint turlarining keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bois, chorvachilik fermer xo'jaliklari va aholi xo'jaliklaridagi mayda shoxli mollarida parazitlik qiluvchi gelmintlarning tur tarkibini aniqlash, bioekologiyasini asoslash, biotoplarda tarqalishini aniqlash, ular keltirib chiqaradigan gelmintoz kasalliklarning chorvachilik tarmog'i rivojlanishi va mahsuldorligiga salbiy ta'sirini baholash, ularga qarshi kurashish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda, jumladan, O'zbekistonda ko'plab olimlar tomonidan mayda shoxli mollar gelmintlarining tur tarkibi, tarqalishi, biologik va ekologik xususiyatlari, sistemikasi, keng tarqalgan va chorva mollari mahsuldorligiga salbiy ta'sir qiladigan gelmintozlari bo'yicha yetarli darajada tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ammo keng mintaqalardan biri hisoblangan Qoraqalpog'istonda mayda shoxli mollarni gelmintologik nuqtai nazardan kompleks o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari deyarli olib borilmagan. Mazkur mintaqa sharoitida gelmintlarning tur xilma-xilligi, dominant gelmintozlar (sestodozlar, trematodozlar va nematodozlar) qo'zg'atuvchilarining tarqalishi, mayda shoxli mollarning zararlanish miqdor va sifat ko'rsatkichlari, epizootik jarayon yuzaga kelishining o'ziga xos xususiyatlari, asosiy xo'jayinlarning zararlanish muddatlari o'rganilmagan. Shu sababli mayda shoxli mollarning turli yosh guruhlarida gelmintlarning xilma-xilligi va miqdorini aniqlash, dominant gelmintozlar epizootik holatini baholash va mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda agrosanoat majmuasi, jumladan, chorvachilikning barcha tarmoqlarini tubdan rivojlantirish, mahsuldorlikni oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishda respublika hududlarida hayvonlarni yuqumli va parazitlar kasalliklardan samarali himoya qilish, hayvonlar va odamlarga xos kasalliklarga qarshi kurashish borasida muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini 1,5-2 barobarga oshirish" vazifasi alohida belgilangan¹. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "... qishloq xo'jaligi hayvonlarining mahsuldorligini oshirish, veterinariya xizmati faoliyatini takomillashtirish, epizootologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan chorvachilikni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

ilmiy asosda rivojlantirish va ularni veterinariya amaliyotiga joriy etish” kabi muhim vazifalar belgilangan.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 7-noyabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-4512-son, 2020-yil 3-iyuldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4776-son, 2022-yil 8-fevraldagi “O‘zbekiston chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-120-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kavsh qaytaruvchi hayvonlar, jumladan, mayda shoxli mollar gelmintlarining tur tarkibi, tarqalishi, biologiyasi, ularning oraliq xo‘jayinlari, ekologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar xorijning etakchi olimlari S.Yamaguti (1971), A.G.Chabaud (1975), O.Bain (1981), M.C.Durette-Desset (1981), Kennedy (1978), G.W.Benz (1985), C.M.Christensen va boshq. (1994), R.N.Anderson (2000), D.J.Gybson va boshq. (2002), E.H.Hoberg va boshq. (2012), O.A.Aleuy va boshq. (2018), O.Yukiteru (2022) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlarida kavsh qaytaruvchi mayda shoxli mollar gelmintlari faunasi, xilma-xilligi, ularning biologiyasi va ekologiyasi, keng tarqalgan patogen gelmintozlar qo‘zg‘atuvchilarining oldini olish choralariga oid ma‘lumotlar K.I.Skryabin (1924), S.N.Boyev va boshq. (1962, 1963), V.G.Gagarin (1963), E.E. Shumakovich (1968), R.S.Shuls, E.V.Gvozdev (1970, 1972), I.S.Jarikov, Yu.G.Yegorov (1977), V.M.Ivashkin, A.O.Oripov, M.D.Sonin (1989), V.I.Larina (2003), S.R.Minkailova (2009), S.O.Movsesyan (2009), N.T.Karsakov (2010), I.I.Sepilova (2015), A.M.Atayev (2017), B.I.Xudoidodov (2019), Z.A.Azizova (2020) va boshqalarning tadqiqotlarida keltirilgan.

O‘zbekistonda kavsh qaytaruvchi hayvonlar, jumladan, mayda shoxli mollarning gelmintlar faunasi, taksonomiyasi, ayrim turlarining bio-ekologik xususiyatlari, keng tarqalgan patogen gelmintozlarga qarshi kurash choralarini o‘rganish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar N.V.Badanin (1949), D.A.Azimov (1963), F.K.Kuchkarov (1968), X.I.Irgashev (1973), Y.M.Zimin (1976), G.S. Pulatov (1985), S.D.Dadayev (1978, 1997), R.R. Mufazalov (1995), F.D.Akramova (2003), A.E.Kuchboyev (2009), E.B.Shakarbayev (2009), D.A.Azimov, S.D.Dadayev va boshq. (2015), S.D.Dadayev va boshq. (2022, 2023) tadqiqotlarida keltirilgan.

Biroq, mazkur tadqiqot ishlari O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, aynan Qoraqalpog‘istonda bu yo‘nalishda tadqiqot ishlari juda kam olib borilgan. Shunga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston mayda shoxli mollari gelmintlarning zamonaviy tur tarkibi, taksonomiyasi, tarqalish xususiyatlari va ekologiyasini asoslash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog‘iston davlat universiteti Umumiy biologiya va fiziologiya kafedrasining “Janubiy Orolbo‘yi hududining flora va faunasini kompleks o‘rganish va muhofaza qilish” (2021-yil 29- avgust №1) ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida hamda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya institutining “Respublika faunasini kompleks tarzda o‘rganish, hayvonot dunyosi obyektlarining zamonaviy holatini baholash va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish” rejasi (2021-2024) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘iston sharoitida mayda shoxli mollar gelmintlarining tur tarkibini aniqlash, taksonomik xilma-xilligi va bioekologik xususiyatlarini kompleks holda o‘rganish hamda asosiy gelmintozlar qo‘zg‘atuvchilarining oldini olishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qoraqalpog‘iston sharoitida mayda shoxli mollar gelmintlarining taksonomik tarkibini aniqlash;

mayda shoxli mollar gelmintlarini faunistik tahlil qilish;

mayda shoxli mollar va ularning gelmintlari o‘rtasidagi biotsenotik aloqalarni o‘rganish;

gelmintlarining yil fasllariga oid dinamikasini tahlil qilish;

gelmint turlarining Qoraqalpog‘istonning ayrim hududlari bo‘yicha taqsimlanishini aniqlash;

keng tarqalgan gelmint turlarining bioekologik xususiyatlarini o‘rganish;

mayda shoxli mollar asosiy gelmintozlarining ekologik-epizootologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga qarshi ayrim antigelmintlarni sinash va natijalarini amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning obyekti Qoraqalpog‘iston mayda shoxli mollar (qo‘y va echkilar) gelmintlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Qoraqalpog‘iston mayda shoxli mollarining gelmintlar faunasi, taksonomiyasi, ekologiyasi, tarqalishi, dominant gelmintozlarning invaziya ekstensivligi va invaziya intensivligi, invaziyaning yil fasllari va hayvonlar yoshi bo‘yicha dinamikasi hamda asosiy gelmintozlarning oldini olishda ayrim antigelmentik preparatlar samaradorligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada gelmintologik, parazitologik, ekologik, biometrik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Qoraqalpog‘iston sharoitida mayda shoxli mollar gelmintlarining 2 ta tip, 3 ta sinf, 9 ta turkum, 15 ta oila, 25 avlodga mansub 37 turi aniqlangan. Aniqlangan gelmintlardan 34 turi qo‘ylarda va 31 turi echkilarda qayd etilgan;

Fasciola gigantica turining qo‘ylarning jigari bilan bir qatorda ularning o‘pkasida ham parazitlik qilishi MDH, jumladan, O‘zbekistonda ilk bor aniqlangan;

qo‘ylarda parazitlik qiladigan gelmitlardan quyidagi 13 ta turi: *Moniezia benedeni*, *Oesophagostomum venulosum*, *O. columbianum*, *Dictyocaulus filaria*, *Trichostrongylus axei*, *T. vitrinus*, *Haemonchus placei*, *Marshallagia marshalli*, *Nematodirus abnormalis*, *N. helvetianus*, *Gongylonema pulchrum*, *Parabronema skrjabini*, *Skrjabinodera saiga* Qoraqalpog‘iston gelmintofaunasi uchun ilk bor aniqlangan;

Echkilarda aniqlangan 31 ta tur gelmintdan - *Alveococcus multilocularis* (larvae) turi MDH gelmintofaunasi uchun hamda 23 ta turi: *Moniezia benedeni*, *Avitellina centripunctata*, *Thysaniezia giardi*, *Multiceps multiceps* (larvae), *Alveococcus multicularis* (larvae), *Trichocephalus ovis*, *Chabertia ovina*, *Oesophagostomum venulosum*, *O. columbianum*, *Dictyocaulus filaria*, *Trichostrongylus axei*, *T. vitrines*, *Haemonchus contortus*, *H. placei*, *Marshallagia marshalli*, *Nematodirus abnormalis*, *N. helvetianus*, *Skrjabinema ovis*, *S. caprae*, *Gongylonema pulchrum*, *Parabronema skrjabini*, *Setaria labiatopapillosa*, *S. digitata* Qoraqalpog‘iston gelmintofaunasi uchun ilk bor qayd etilgan;

mayda shoxli mollar bilan ularning parazitlari o‘rtasidagi biotsenotik aloqalari ochib berilgan hamda gelmintlarning 6 ta biologik guruhi mavjudligi qayd etilgan;

mayda shoxli mollarning gelmintlar bilan zararlanish darajasi yil fasllari bo‘yicha hamda Qoraqalpog‘istonning ayrim hududlari bo‘yicha taqsimlanishi ochib berilgan;

mayda shoxli mollarda keng tarqalgan nematodalardan *Haemonchus*, *Marshallagia*, *Nematodirus* va *Dictyoculus* avlodlari vakillarining bio-ekologik xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘iston sharoitida mayda shoxli mollar gelmintlari faunasi va ular qo‘zg‘atadigan asosiy gelmintozlarni invaziya ekstensivligi va invaziya intensivligi yil fasllari va hayvon yoshlari bo‘yicha, shuningdek, ekologik-epizootologik jarayonlari ochib berilgan;

exinokokkoz, alveokokkoz va senuroz qo‘zg‘atuvchilarining yovvoyi yirtqich hayvonlar, jumladan itlar va qishloq xo‘jalik hayvonlari hamda odamlarga uzatilish mexanizmining oldini olish choralari ishlab chiqilgan;

mayda shoxli mollar monieziozi, shistosomozi, parabronemoziga qarshi kurash choralari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda an’anaviy parazitologik, gelmintologik va morfometrik usullarning qo‘llanilganligi, natijalarning turli xalqaro va mahalliy ilmiy nashrlarda chop etilgani, morfometrik ma’lumotlarning BioStat 3.8 2007 dasturi yordamida statistik tahlil qilingani hamda amaliy natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog‘istonda mayda shoxli mollar gelmintlari turlar tarkibining aniqlanganligi, faunasining yangi taksonomik tahlil qilinganligi,

tarqalishi, ekologik xususiyatlari va gelmintlarning xo‘jayin bilan biotsenotik aloqalari ochib berilganligi hamda gelmintlar alohida turlarining epizootik ahamiyatiga baho berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qo‘y va echkilarning asosiy gelmintozlarini aniqlash uchun qiyosiy tahlil o‘tkazishda va ular populyatsiyalari tarqalishining zamonaviy holatini baholashda, mayda shoxli mollar gelmintozlarining ekologo-epizootologik xususiyatlari asosida ularga qarshi epidemiologik asoslarini ishlab chiqish hamda ular tarqalishining oldini olishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog‘iston mayda shoxli mollari gelmintlari (faunasi, tarqalishi, ekologiyasi) mavzusi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qoraqalpog‘iston hududida mayda shoxli mollar o‘pkasi va jigarida parazitlik qiladigan exinokokkoz va alveokokkoz qo‘zg‘atuvchilari hamda bosh miyasida parazitlik qiladigan senuroz qo‘zg‘atuvchisi ba‘zan odamlarda ham uchrab, og‘ir kasalliklarga olib kelishi va bu gelmintozlarning asosiy xo‘jayinlari yirtqich hayvonlar, jumladan, itlar hisoblanishi o‘rganilgan. Yuqoridagi parazitlar bilan kasallangan qo‘y va echkilarni kasallangan organlarini, ularni asosiy xo‘jayinlari bo‘lmish itlarga bermasdan tuproqqa chuqur ko‘mish yoki kuydirish yo‘li bilan yo‘qotish asosida kasallanishni oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi amaliyotiga joriy qilingan. (Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2024-yil 4-iyundagi 01/3155-son ma‘lumotnomasi). Natijada, exinokokkoz, alveokokkoz va senuroz qo‘zg‘atuvchilari bilan itlarning zararlanish darajasini kamaytirish hamda kasallik qo‘zg‘atuvchilarining odamlarga uzatilish zanjirini uzish imkonini bergan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qo‘ng‘irot va Bo‘zatov tumanlaridagi qo‘ychilik fermer xo‘jaliklarida moniezioz, shistosomoz va parabronemoz bilan zararlangan qo‘ylarda prazikvantel va fenbendazol (SMKF) supramolekulyar komplekslarining antigelmintik samaradorligi aniqlanib, veterinariya amaliyotiga joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish Qo‘mitasining 2024-yil 25-martdagi 33/01-05-252-son ma‘lumotnomasi). Natijada bu preparatlar moniezioz, shistosomoz va parabronemoz bilan kasallangan qo‘ylarga 2,0 va 3,0 mg/kg dozalarda berilganda 85,7 va 100% samaradorlikka erishilgan. Olib borilgan tadqiqot ishlar natijasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi qo‘ychilik fermer xo‘jaliklarida qo‘ylarning moniezioz, shistosomoz va parabronemoz bilan kasallanishini keskin kamaytirish imkonini bergan;

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston sharoitida mayda shoxli mollarda parazitlik qiladigan dominant nematodalardan - *Haemonchus*, *Marshallagia*, *Nematodirus* va *Dictyoculus* avlodlari vakillari tuxum hamda lichinkalarini tashqi muhitda yashovchanligini yil fasllari bo‘yicha aniqlash uchun muallif tomonidan 2021-2024-yillar davomida Taxtako‘pir tumaniga qarashli chorvachilik fermer xo‘jaliklarida 3 ta biotopda: ochiq joyda; shuvoq ildizlari atrofida va saksavul shoxlari tagida tajribalar qo‘yish asosida o‘rganilib tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tavsiyanomada mayda shoxli mollarni bir yaylovda uzoq muddatda boqmasdan, yaylovlarni tez-tez almashtirib turish, qo'y-echkilar yuqoridagi invaziya elementlari bilan deyarli zararlanmasligi kuzatildi, bu ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Taxtako'pir tumani bo'limi amaliyoliga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 19-iyundagi 01/18-2-1924 son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu hududlarda mayda shoxli mollar boqiladigan yaylovlarda dominant gelmintlar invazion elementlarini va hayvonlarni ular bilan zararlansh darajasini boshqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 31 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, shundan, 10 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Mayda shoxli mollar gelmintlarining o'rganilish holati**» deb nomlangan birinchi bobida qo'ylar va echkilar gelmintlarining O'zbekistonda, MDH va xorijiy mamlakatlarda tur tarkibi, tarqalishi, sistematikasi, keng tarqalgan va patogen gelmintozlar qo'zg'atuvchilarining bioekologik xususiyatlari, epizootologiyasi va ularning oldini olish choralari haqida mutaxassis olimlar tomonidan olib borilgan ishlar tahlil qilingan. Tahlillar natijasiga ko'ra, Qoraqalpog'istonda mayda shoxli mollar gelmintlari juda kam o'rganilgan bo'lib, fragmentar xususiyatga egaligi qayd etildi.

Dissertatsiyaning «**Qoraqalpog'iston respublikasining qisqacha tabiiy-geografik tavsifi, mayda shoxli mollar gelmintlarini o'rganish usullari va tadqiqot materiallari**» deb nomlangan ikkinchi bobida o'rganilayotgan hududning tabiiy-geografik tavsifi, tadqiqot materiallari, tajriba o'tkazilgan joy hamda qo'llangan metodlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishlari 2021-2024 yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasining turli tumanlaridagi fermer xo'jaliklari va shaxsiy xonadonlarga

tegishli mayda shoxli mollar ustida olib borilgan. Akademik K.I. Skryabinning (1928) to‘liq va to‘liq bo‘lmagan gelmintologik yorib ko‘rish usuli bilan 389 bosh mayda shoxli mollar tekshirilgan. Jumladan, 184 bosh qo‘y (82 bosh qo‘y - to‘liq yorib ko‘rish usulida, 102 bosh qo‘y esa to‘liq bo‘lmagan yorib ko‘rish usulda tekshirilgan) va 205 bosh echki (95 bosh echki - to‘liq yorib ko‘rish usulida va 110 bosh echki - to‘liq bo‘lmagan yorib ko‘rish usulida) tekshirilgan. Shuningdek, tadqiqot olib borish jarayonida qo‘ylardan 525 ta va echkilardan 587 ta tezak namunalari olinib, laboratoriya sharoitida G.A. Kotelnikov, M.Sh. Akbayev va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan gelmintokoprologik usullar asosida o‘rganildi.

Mayda shoxli mollar gelmintlari tur tarkibini aniqlashda mahalliy va xorijiy olimlar ishlaridan keng foydalanilgan (Azimov va b., 2015; Ivashkin va b., 1971, 1989; Shults, Gvozdev, 1970, 1972; Cherepanov va b., 1999; Anderson, 2000).

Barcha raqamlarga oid ma’lumotlar matematik va statistik qayta ishlangan (Lakin, 1990).

Dissertatsiyaning “**Qoraqalpog‘iston mayda shoxli mollar gelmintlarining taksonomik tahlili**” deb nomlangan uchinchi bobida Qoraqalpog‘iston Respublikasi mayda shoxli mollar gelmintlarining taksonomik holatiga oid tadqiqot natijalari bayon etilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qoraqalpog‘istonning turli hududlarida mayda shoxli mollar o‘rtasida 37 tur gelmint: qo‘ylarda 34 ta tur va echkilarda 31 ta tur gelmint parazitlik qilishi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval


Qoraqalpog‘iston qo‘y va echkilar gelmintlari tur tarkibi

Gelmintlar tur tarkibi	Qo‘y	Echki
1. <i>Moniezia exspana</i> (Rudolphi, 1810)	+	+
2. <i>M. benedeni</i> (Moniez, 1879)	+	+
3. <i>Avitellina centripunctata</i> (Rivolta, 1874)	+	+
4. <i>Thysaniezia giardi</i> (Moniez, 1879)	+	+
5. <i>Taenia hydatigena</i> (Pallas, 1766) larvae	+	+
6. <i>Multiceps multiceps</i> (Leske, 1780) larvae	+	+
7. <i>Echinococcus granulosus</i> (Batsch, 1786) larvae	+	+
8. <i>Alveococcus multicularis</i> (Leukart, 1863) larvae	-	+
9. <i>Fasciola gigantica</i> L., 1758	+	+
10. <i>Gastrothylax crumenifera</i> (Creplin, 1847)	+	+
11. <i>Schistosoma turkestanicum</i> (Skrjabin, 1913)	+	+
12. <i>Trichocephalus ovis</i> Abildgaard, 1795	+	+
13. <i>T. skrjabini</i> (Baskakov, 1924)	+	+
14. <i>Chabertia ovina</i> (Fabricius, 1788)	+	+
15. <i>Oesophagostomum venulosum</i> (Rudolphi, 1809)	+	+
16. <i>O. columbianum</i> Curtice, 1890	+	+
17. <i>Dictyocaulus filaria</i> (Rudolphi, 1809)	+	+
18. <i>Trichostrongylus axei</i> (Cobbold, 1879)	+	+
19. <i>T. vitrinus</i> (Looss, 1905)	+	+

20. <i>Trichostrongylus sp.</i>	+	-
21. <i>Haemonchus contortus</i> (Rudolphi, 1803)	+	+
22. <i>H. placei</i> (Place, 1893)	+	+
23. <i>Marshallagia marshalli</i> Ransom, 1907	+	+
24. <i>M. mongolica</i> Schumakovitsh, 1938	+	-
25. <i>Nematodirus abnormalis</i> May, 1920	+	+
26. <i>N. helvetianus</i> May, 1920	+	+
27. <i>N. oiratianus</i> Rajewskaja, 1929	+	+
28. <i>N. spathiger</i> (Railliet, 1896)	+	-
29. <i>Teladorsagia circumcincta</i> (Stadelmann, 1894)	+	-
30. <i>Ostertagia sp.</i>	+	-
31. <i>Skrjabinema ovis</i> (Skrjabin, 1915)	+	+
32. <i>S. caprae</i> Schad, 1959	-	+
33. <i>Gongylonema pulchrum</i> Molin, 1857	+	+
34. <i>Parabronema skrjabini</i> Rassowska, 1924	+	+
35. <i>Skrjabinodera saiga</i> Gnedina et Vsevolodov, 1947	+	-
36. <i>Setaria labiato-papillosa</i> (Alessandrini, 1848)	+	+
37. <i>S. digitata</i> (Linstow, 1906)	-	+
Jami:	34	31

Qoraqalpog‘istonda mayda shoxli mollarda parazitlik qiladigan 37 tur gelmint 25 ta avlod, 15 ta oila, 9 ta turkum, 3 ta sinf va hayvonot dunyosining 2 ta tipiga mansubdir.

Trematodalar sinfi 3 ta turni birlashtiradi va umumiy turlar sonining 8,1% ni tashkil etgan; Cestodalar sinfi 8 ta turni birlashtiradi va umumiy turlar sonining 21,6% ni tashkil etgan; Nematodalar sinfi 26 ta turni birlashtiradi va umumiy turlar sonining 70,3% ni tashkil etgan (1-rasm).




1-rasm. Mayda shoxli mollar gelmintlarining sinflar kesmida taqsimlanishi

Dissertatsiyaning “**Qoraqalpog‘iston mayda shoxli mollari gelmintlarining faunasi va ekologiyasi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobi beshta paragrafdan iborat. Bobning birinchi paragrafida **Qoraqalpog‘iston qo‘ylari (*Ovis aries dom.*) gelmintlari faunasi** bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlar natijalari keltirilgan.

Qo‘ylarda parazitlik qiladigan 34 ta tur gelmintdan 13 turi Qoraqalpog‘istonda birinchi marta aniqlandi. Shuningdek, qo‘ylarning jigari bilan bir qatorda, ularning o‘pkasida ham *Fasciola gigantica* parazitlik qilishi ilk bor aniqlandi. Bu parazit MDH, jumladan, O‘zbekiston sharoitida tuyoqli hayvonlar o‘pkasida parazitlik qilishi hozirgacha aniqlanmagan.

Qo‘ylarda aniqlangan 34 tur gelmintdan 3 ta turi Trematodalar sinfiga (umumiy turlar sonining 8,8 %), 7 ta turi Cestodalar sinfiga (umumiy turlar sonining 20,6%) va 24 ta turi Nematodalar sinfiga (umumiy turlar sonining 70,6%) mansubligi ma’lum bo‘ldi (2-rasm).



2-rasm. Qo‘ylar gelmintlarining sinflar kesimida taqsimlanishi

Qo‘ylarda aniqlangan gelmint turlari 9 ta turkum, 15 ta oila va 24 ta avlodga mansubdir (2-jadval). Rivojlanish sikliga ko‘ra 14 turi biogelmintlar va 20 turi geogelmintlar hisoblanadi.

2-jadval


Qoraqalpog‘istonda qo‘ylar gelmintlarining taksonomik tarkibi

№	Oila	Avlod	Tur
CYCLOPHYLLIDA turkumi			
1	<i>Anoplocephalidae</i>	1	2
2	<i>Avitellinidae</i>	2	2
3	<i>Taeniidae</i>	3	3
FASCIOLIDA turkumi			
4	<i>Fasciolidae</i>	1	1
PARAMPHISTOMIDA turkumi			
5	<i>Paramphistomidae</i>	1	1

SCHISTOSOMATIDA turkumi			
6	<i>Schistosomatidae</i>	1	1
TRICHOCEPHALIDA turkumi			
7	<i>Trichocephalidae</i>	1	2
STRONGYLIDA turkumi			
8	<i>Chabertidae</i>	2	3
9	<i>Trichostrongylidae</i>	6	13
PSEUDALIIDA turkumi			
10	<i>Dictyocaulidae</i>	1	1
OXYURIDA turkumi			
11	<i>Syphaciidae</i>	1	1
SPIRURIDA turkumi			
12	<i>Gongylonematidae</i>	1	1
13	<i>Habronematidae</i>	1	1
14	<i>Onchocercidae</i>	1	1
15	<i>Setariidae</i>	1	1
	15	24	34

Bobning ikkinchi paragrafida **Qoraqalpog‘ston echkilari (*Capra hircus dom.*) gelmintlari faunasi** bo‘yicha tadqiqot natijalari kelitirilgan. Echkilarda 31 tur gelmint parazitlar qilib, shulardan 23 turi birinchi marta Qoraqalpog‘istonda aniqlangan. Shuningdek, Qoraqalpog‘istonda olib borgan tadqiqot ishlarimiz natijasida echkilar jigarida *Alveococcus multilocularis (larvae)* uchrashi va bu parazit O‘zbekistonda, shu jumladan, Qoraqalpog‘istonda birinchi marta qayd etildi.

Echkilarda parazitlik qiladigan gelmintlardan 3 ta turi Trematodalar sinfiga (umumiy turlar sonining 9,6 %), 8 ta turi Cestodalar sinfiga (umumiy turlar sonining 25,8 %) va 20 ta turi Nematodalar sinfiga (umumiy turlar sonining 64,5%) kirishi aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. Echkilar gelmintlarining sinflar kesimida taqsimlanishi

Echkilarda aniqlangan gelmint turlari 3 sinf, 9 turkum, 14 oila va 22 avlodga mansub (3-jadval). Echkilarda qayd etilgan 31 tur gelmintning 4 ta turi lichinkalik bosqichida *Taenia hydatigena* (larvae), *Multiceps multiceps* (larvae), *Echinococcus granulosus* (larvae), *Alveococcus multicularis* (larvae) va 27 ta turi jinsiy voyaga yetgan davrida parazitlik qiladi, shuningdek, ularning 16 turi (51,6%) geogelminlar va 15 turi (48,4 %) biogelminlar hisoblanadi.

3-jadval

Qoraqalpog‘istonda echkilar gelmintlarining taksonomik tarkibi

Sinf	Turkum	Oila	Turlar soni
CESTODA	Cyclophyllida	Anoplocephalidae	2
		Avitellinidae	2
		Taeniidae	4
TREMATODA	Fasciolida	Fasciolidae	1
	Paramphistomida	Paramphistomidae	1
	Schistosomatida	Schistosomatidae	1
NEMATODA	Trichocephalida	Trichocephalidae	2
	Strongylida	Chabertidae	3
		Trichostrongylidae	8
	Pseudaliida	Dictyocaulidae	1
	Oxyurida	Syphaciidae	2
	Spirurida	Gongylonematidae	1
		Habronematidae	1
Setariidae		2	
3	9	14	31

Bobning uchinchi paragrafida **Qoraqalpog‘ston mayda shoxli mollari va ular gelmintlari o‘rtasidagi biotsenotik aloqalar** haqida olib borilgan tadqiqot ishlar natijalari yoritilgan. Gelmintofaunaning tarkibini va parazitlar uchrash holatini belgilovchi asosiy omillardan biri xo‘jayin va parazitlarning biotsenotik aloqalari hisoblanadi (Kontrimovichus, 1969).

Qoraqalpog‘ston mayda shoxli mollarida parazitlik qiluvchi gelmintlarni asosiy xo‘jayinlariga o‘tishini V.A. Kontrimovichus klassifikatsiyasi bo‘yicha tahlil qilganda quyidagi 4 ta guruhga mansubligi aniqlangan:

I guruhga mansub, ya‘ni asosiy xo‘jayinlariga parazitni tuxumi yoki lichinkasi bilan zararlangan oraliq yoki rezervuar xo‘jayinlarini ozuqa sifatida yeyishi orqali o‘tadigan gelmintlar Qoraqalpog‘ston mayda shoxli mollarida qayd qilinmadi.

II guruhga mansub, ya‘ni invaziya elementlarini asosiy xo‘jayinlariga mexanik tarzda suv yoki oziq-ovqat orqali yuqadigan gelmintlar Qoraqalpog‘ston mayda shoxli mollarida keng tarqalgan, ular 24 avlodga mansub (*Moniezia*, *Avitellina*, *Thysaniezia*, *Echinococcus*, *Alveococcus*, *Taenia*, *Multiceps*, *Fasciola*, *Gastrothylax*, *Trichocephalus*, *Chabertia*, *Oesophagostomum*, *Dictyocaulus*,

Trichostrongylus, *Haemonchus*, *Marshallagia*, *Nematodirus*, *Teladorsagia*, *Ostertagia*, *Skrjabinema*, *Skrjabinodera*, *Gongylonema*, *Parabronema*, *Setaria*) 34 ta gelmint turi kiradi.

III guruhga mansub, ya'ni asosiy xo'jayinlariga faol holatda kiradiganlariga misol qilib *Schistosoma turkestanicum* lichinkalarini ko'rsatish mumkin. Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollariga *Schistosoma turkestanicum* trematoda lichinkalari teri orqali faol harakat qilib kiradi.

IV guruhga mansub, ya'ni zararlangan oraliq xo'jayinlari asosiy xo'jayinlariga oziqlanish uchun hujum qilganida yuqadi. Bu guruhga kiruvchi gelmintlardan Qoraqalpog'ston mayda shoxli mollarida *Setaria* avlodi vakillari kiradi.

Shunday qilib, mayda shoxli mollar, topik aloqalar orqali zararlanib, ularga oraliq xo'jayinlar orqali gelmintlarning 15 turi yuqadi, bu ular umumiy sonining 40,5% ni tashkil qiladi: 3 ta turi trematodalar, (20%), 8 turi cestodalar (53,3%) va 4 ta turi nematodalar (26,7%) hisoblanadi.

M.M. Tokobaev asosiy xo'jayinlar bilan ularning gelmintlari o'rtasidagi biotsenotik aloqalarni yanada takomillashtirgan [Tokobayev, 1973]. Muallif gelmintlarni rivojlanishi va ularni yuqumli elementlarini asosiy xo'jayinlariga yuqishiga qarab 8 ta biologik guruhlariga bo'ladi. M.M. Tokobayev sistemasiga ko'ra Qoraqalpog'iston sharoitida mayda shoxli mollari va ularda parazitlik qiladigan gelmintlar o'rtasidagi biotsenotik aloqalar tahlil qilinganda quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi:

I guruh gelmintlarning yuqumli elementlari tuxumi ichida shakllanadi, qaysiki tuxum asosiy xo'jayin ichiga tushgandan keyingina tuxumdan lichinka chiqadi. Bu biologik guruhga *Trichocephalus ovis*, *T. skrjabini*, *Skrjabinema ovis* va *S. caprae* turlari kiradi (10,8 %).

II guruh gelmintlarning yuqumli elementlari erkin holda o'simliklarda, tuproqda va boshqa joylarda tarqalgan. Bu biologik guruhga *Chabertia ovina*, *Oesophagostomum venulosum*, *O. columbianum*, *Dictyocaulus filaria*, *Trichostrongylus axei*, *T. vitrinus*, *Trichostrongylus sp.*, *Haemonchus contortus*, *H. placei*, *Marshallagia marshalli*, *M. mongolica*, *Nematodirus abnormalis*, *N. helvetianus*, *N. oiratianus*, *N. spathiger*, *Teladorsagia circumcincta*, *Ostertagia sp.* turlari kiradi (45,9 %).

III guruh gelmintlarning yuqumli elementlari suvda erkin holda yashaydi. Bu biologik guruhga *Fasciola gigantica*, *Gastrothylax crumenifera*, *Schistosoma turkestanicum* turlari kiradi (8,1 %).

IV guruh gelmintlarning yuqumli elementlari suvda yashovchi turli xil umurtqasiz hayvonlarda rivojlanadi (Qoraqalpog'iston mayda shoxli mollarida bu biologik guruhga kiruvchi gelmintlar qayd etilmadi).

V guruh gelmintlarning yuqumli elementlari quruqlikda yashovchi har xil bo'g'moyoqlilarda rivojlanadi - *Moniezia expansa*, *M. benedeni*, *Avitellina centropunctata*, *Thysaniezia giardia*, *Gongylonema pulchrum* (13,5 %).

VI-guruh gelmintlarni yuqumli elementlari suvda yashovchi umurtqali hayvonlarda rivojlanadi (Qoraqalpog‘iston mayda shoxli mollarida bu biologik guruhga kiruvchi gelmintlar ham qayd etilmadi).

VII guruh gelmintlarning yuqumli elementlari quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlarda rivojlanadi - *Taenia hydatigena* (larvae), *Multiceps multiceps* (larvae), *Echinococcus granulosus* (larvae), *Alveococcus multicularis* (larvae) (10,8 %).

VIII guruh gelmintlarning yuqumli elementlari asosiy xo‘jayinlariga hujum qiluvchi qon so‘ruvchi ikki qanotli hasharotlarda rivojlanadi - *Setaria labiata-papillosa* va *S. digitata* (5,4 %).

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Qoraqalpog‘iston mayda shoxli mollarida 6 ta biologik guruhga kiruvchi gelmintlar parazitlik qilishi aniqlandi.

Bobning to‘rtinchi paragrafi **Qoraqalpog‘iston sharoitida mayda shoxli mollarni gelmintlar bilan mavsumiy zararlanish darajasi** haqida olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan. Qoraqalpog‘istonda mayda shoxli mollarning gelmintlar bilan mavsumiy zararlanish darajasi yil fasllari bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari kelitirilgan.

Ma‘lumki, yil fasllari hayvonlarni, jumladan, mayda shoxli mollarni gelmintlar bilan zararlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Bahorda tekshirilgan qo‘ylarda gelmintlarni 32 ta turi aniqlangan bo‘lib, turlar o‘rtasidagi invaziya ekstensivligi 0,5 % dan 46,4 % gacha borishi kuzatildi. Bahorda qo‘ylar asosan *Fasciola gigantica*-29,3%, *Schistosoma turkestanicum*-19,5%, *Echinococcus granulosus* (larvae)-26,8%, *Trichocephalus skrjabini*-36,6%, *Oesophagostomum columbianum*-26,8%, *Trichostrongylus axei*-46,4%, *Tr. vitrinus*-24,4%, *Haemonchus contortus*-46,4%, *Nematodirus abnormalis*-26,9%, *N. helvetianus*-24,4%, *Chabertia ovina*-28,3%, *Dictyocaulus filaria*-36,6% va boshqalar bilan yuqori darajada zararlagan bo‘lsa, *Gastrothylax crumenifera*-2,4%, *Thysaniezia giardi*-7,3%, *Nematodirus spathiger*-4,9% va *Skrjabinema ovis*-4,9% turlari bilan esa past darajada zararlangani aniqlangan.

Yozda tekshirilgan qo‘ylarda gelmintlarning 29 ta turi parazitlik qilishi aniqlandi. Bunda turlar o‘rtasidagi invaziya ekstensivligi 2,1 % dan 47,9 % gacha borgan. Yozda qo‘ylar asosan quyidagi gelmintlar bilan ancha yuqori darajada zararlangani kuzatilgan: *Fasciola gigantica*-41,3%, *Schistosoma turkestanicum*-19,5%, *Echinococcus granulosus* (larvae)-28,3%, *Moniezia expansa*-21,7%, *Oesophagostomum columbianum*-34,8%, 47,9%, *Trichostrongylus axei*-47,9%, *Trichostrongylus vitrinus*-39,2%, *Chabertia ovina*-28,3%, *Haemonchus contortus*-47,9%, *Nematodirus abnormalis*-37%, *Nematodirus helvetianus*-34,8%, *Dictyocaulus filaria*-39,2% va boshqalar.

Kuzda tekshirilgan qo‘ylarda gelmintlarni 33 ta turi aniqlangan bo‘lib, ular o‘rtasidagi invaziya ekstensivligi 0,5% dan 49,2% gacha borishi kuzatildi. Bu faslda qo‘ylar asosan, *Fasciola gigantica*-49,2%, *Trichostrongylus axei*-49,2%, *Haemonchus contortus*-49,2%, *Trichostrongylus axei*-49,2%, *T. vitrinu*-45,7%, *Trichocephalus skrjabini*-38,6%, *Chabertia ovina*-31,6%, *Oesophagostomum*

columbianum-38,6%, *Nematodirus abnormalis*-42,2%, *N. oiratianus*- 38,6%, *N. helvetianus*-33,4%, *Dictyocaulus filaria*-40,4% va boshqa tur gelmint bilan yuqori darajada zararlangani aniqlandi.

Qishda qo‘ylar asosan *Fasciola gigantica*-50,0, *Schistosoma turkestanicum*-32,5%, *Echinococcus granulosus (larvae)*-35,0%, *Moniezia expansa*-20,0%, *M. benedeni*-25,0% va *Trichocephalus ovis*-30,0% kabi gelmintlar bilan yuqori darajada zararlangani kuzatilgan.

Bahorda echkilar asosan, *Fasciola gigantica*-26,5%, *Schistosoma turkestanicum*-22,9%, *Oesophagostomum columbianum*-36,7%, *O. venulosum*-26,5%, *Trichostrongylus axei*-44,9%, *T. vitrinus*-38,8%, *Haemonchus contortus*-22,5%, *Nematodirus abnormalis*-38,8%, *N. helvetianus*-32,7%, *N. oiratianus*-30,6% va *Dictyocaulus filaria*-26,5% kabi gelmint turlarining invaziya ekstensivligi ancha yuqori ekani va aksincha *Thysaniezia giardia*-4,1%, *Alveococcus multicularis*-2,0%, *Trichocephalus skrjabini*-4,1%, *Marshallagia marshali*-6,2%, *Gongylonema pulchurum*-6,2%, *Setaria labiato-papillosa*-6,2% va *S. digitata*-6,2% turlarini invaziya ekstensivligini past darajada ekani qayd etildi.

